

# O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

## OLIM BO'LIHDAN HAM, ODAM BO'LISH QIYINROQ

**Rahmatova Bahora Shodiyor qizi**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyat institute filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada "Bir daqiqa sukut - Bir umrlik pushaymon" nomi ostida O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" asari tahlil qilinadi. Uning ijtimoiy, umuminsoniy, zamonaviy qimmatini haqida so'z yuritiladi. Asarda ishtirok etgan qahramonlar ruhiyati, ularning ichki kechinmalari, xarakterlari va asarning mohiyati ochib beriladi. Ushbu romanning o'ziga xosligi va hozirgi kungacha yo'qolmaganligi aksincha unda aks etgan voqealar hayotiy va haqqoniy ifodalanishi asardagi har bir personaj hayoti va ruhiyatida aks etgan voqealar orqali kitobxonga yetkazib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Qahramon, roman, syujet, obraz.

### **Kirish**

O'lmas Umarbekov o'zbek adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan zabardast yozuvchi sanaladi. Adibning ilk romani "Odam bo'lish qiyin" bo'lib 1969-yilda yozilgan. O'lmas Umarbekovning ushbu romanida hayotning achchiq haqiqatlarga to'la nafasi ufurib turadi. Asar tilining soddaligi, jo'nligi, voqealarining jonliligi e'tiborga loyiq. O'tgan asrning ikkinchi yarmidagi o'zbek nasrining rivojida O'lmas Umarbekovning o'ziga xos o'rni bor.

Osmondan bo'zto'rg'ay

Bo'zlamasang na bo'lg'ay

Gulchehraning holini

So'zlamasang na bo'lg'ay

Asarning muqaddima qismidagi shu to'rtlik butun asar mazmuniga singib ketgan. Asar qahramonlari: Abdulla, Gulchehra, Samad, Qosimjon, Sayyora kabi endigina maktabni bitirgan, katta hayoti ostonasida turgan yoshlar haqida, ularning maqsadi, rejalari haqida hikoya qilinadi. Bundan tashqari odamiylik tuyg'ularining qay darajada muhimligi, o'zbeklarning sodda va mehribonligi va oddiy qishloq hayoti haqidagi voqealar yoritib beriladi. Asarda o'zbek ayolini yaqqol namoyon etgan Hojar buvi, kuni mehnatda o'tadigan Obid aka, o'zining jonkuyar mehnati uchun "Mehnat qahramoni unvoni" ni olgan qishloqning oldi odami Yusuf aka kabi personajlar qatnashgan. Asarning bosh qahramoni Abdulla: o'qimishli, ziyoli oilaning farzandi, maktabni ham oltin medal bilan yakunlaydi. Abdulla doim yaxshi kasb egasi bo'lishga, yuqori cho'qqilarni zabt etishga intiladi. Abdulla shohona hayotni, yuqori mansablarni egallashni istaydi va bu yo'lda hattoki o'z muhabbatidan ham voz kechadi. Asarning qisqa syujet

## **O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI**

quyidagicha boshlanadi: Abdulla buvisining uyiga, Mingbuloqqa ta'tilda kelib yurardi. Maktab oltin medal bilan bitirgach ham odatiga ko'ra qishloqqa boradi. U yerda yoshlikdagi o'rtog'i Gulchehrani uchratib qoladi va chiroyli, odobli qiz bo'lganini ko'rib yigit beixtiyor ko'ngil qo'yadi. Ular Abdulla shaharga qaytgungacha bir-birlari bilan uchrashib yurishadi.

Ularning rejalariga ko'ra, ta'tildan so'ng ikkisi ham o'qishga topshirishlari, biror oliygohda ta'limni davom ettirmoqchi edilar. Gulchehraning maqsadi aniq: me'mor bo'lish. Ammo u shaharga bora olmasdi. Onasi saratonga chalingan, ota-onasini shu ahvolda tashlab ketishga ko'zi qiymasdi. Shuning uchun sirtqi ta'limga topshirdi. U ayni paytda qishlog'ining eski maketini yasay boshlagandi. Maqsadi - eski va ko'rimsiz qishlog'ini yangi va qulay go'shaga aylantirish.

Abdullani esa buvisinikidan qaytgach uni yangilik kutib turardi. Ayni paytda Abdullaning ham otasi bemor: gipertoniya chalingan bo'lib, uydan tashqariga chiqa olmay qolgandi. Otasining yoniga Tursunali ismli odam keladi va Abdullaning Moskvadagi yangi ochilgan institutda o'qishi uchun yordam berishini aytadi. Abdullaning dadasi G'ofur aka bu odamga ilgari yordam berganligini eslaydi.

Tursunali aka ham Abdullaning aqlli, esli-hushli, quntli bola ekanligini bilardi. Qolaversa, o'zining qizi Sayyorani ham o'sha institutda o'qitmoqchi, qiziga Abdullani hamroh qilmoqchi edi. Bunday taklifni eshitib Abdulla biroz gangiydi. Axir, Moskvaga ketib qolsa, Gulchehradan uzoqlashib ketishi mumkin, bu taklifdan voz kechsa, keyinchalik boshqa bunday imkoniyat qayta bo'lmasligi mumkin. Abdulla rozi bo'ladi....Borib 4 yil o'qiydi. Har yili ta'tilda Moskvadan kelgandanoq odatiga ko'ra Mingbuloqqa buvisini ko'rish bahona Gulchehrani yoniga borardi, kelishi bilan kechaki barchaga yashirin oyga ma'lum uchrashuvlar boshlanardi. Bu orada esa Gulchehraning onasi olamdan o'tadi, dadasi boshqa ayolga uylanadi. Gulchehra butun boshli qishlog'ining yangi loyihasini ishlab chiqadi va bu loyiha odamlarga ma'qul bo'ladi. Bundan tashqari, Toshkentda "Yoshlik" nomli mehmonxona uchun loyihalar tanlovida g'olib bo'lib, uning chizmalari asosida mehmonxona qurila boshlaydi. Faqat bitta muammo bor edi: Gulchehra Abdulladan homilador bo'lgandi.

Bu paytda Abdulla o'qishni bitiray deb turgan, xayollari chalkashlik bir holatga tushgandi. Sababi shundaki, Tursunali aka akademik unvonini olgan bo'lib, bu unvon Abdullaning ham orzusiga aylangan, yuragiga o't solgandi. Tursunali aka Abdullani kuyov qilish niyatida yurganini bilgandan so'ng u uchun Sayyoraga uylanish unvon tomon dadil qadam bo'lishini o'ylab qolgandi. Sayyoraga uylanish yorqin kelajak kafolatidek ko'rini boshladi unga. Lekin uning ko'ngli Gulchehrada edi. Gulchehra ham anoyi chiqmadi, qishlog'ida katta ishlarni boshlab yuboribdi.

Shunday ikkilanib yurgan kunlarning birida o'sha bir daqiqalik sukut, hirs ortidan bo'lgan voqeaning mudhish natijasi haqida xat o'qigach Abdulla gangib

## **O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI**

qoldi. Sarosimaga tushdi. Gulchehrraga bolani oldirish haqida telegramma yubordi.

Bu orada esa Gulchehra mehmonxona qurilishini nazorat qilish maqsadida Toshkentga boradi. Ishlarni ko'zdan kechirib chiqqach Gulchehra doktor izlay boshladi. Bir necha kunga bir kampirning uyida ijarada turadi va unga barcha dardini to'kib soladi. Bir kuni bozorda Abdullaning onasiga duch kelib qolgan Gulchehra Abdullaning uylanayotganini eshitadi. Butun orzularini payhon bo'lgan, tuyg'ulari toptalgan Gulchehra uyga sig'may kechasi hali to'liq bitib ulgurmagan mehmonxonaga boradi-da, eng yuqori qavatiga chiqib, kutilmaganda beixtiyor tushib ketib, parcha-parcha bo'lib jon beradi.

Butun qishloq fojiadan va uning sababidan xabardor bo'ladi. Endi Abdulla bosh ko'tarib yurolmasdi. Na odamlar va na o'zining oldida...

Natija va muhokamalar

Abdulla chindan ham samimiy, tirishqoq, insofli bola edi. Uning shuhratparast bo'lib qolishiga, amalga intilishiga maktab payti orttirgan ruhiy jarohati sabab bo'ladi. Otasining qo'lida amali bo'lgan vaqtda o'zini o'ylamasdan boshqalarga qo'lidan kelgancha yordam berar edi ammo amal otidan tushgandan so'ng o'g'li Abdullaga nisbatan o'qituvchilarning muomalasi o'zgarishi, ayniqsa, otasining do'sti Husan amakining ikkiyuzlamachiliklari Abdullani butunlay o'zgartirib yuborgandi. U bu dunyoda eng zo'ri bo'lsanggina seni hurmat qilishadi, senga tavvallo etishadi degan fikrga borgan edi. Abdullaning qalbidagi insoniylikni yo'qolishiga sababchi bo'lgan ustozlar deb, asardagi bosh obrazlar hayoti fojiaiy yakunlanadi, bu bir kishining emas, balki ko'plarning fojiasiga ham sabab bo'ldi. Pedagoglik kasbining falsafasi barcha kasbdan ko'ra murakkabroq. Nihol bolaning oppoq qalb daftariga insoniylik degan so'zni o'yib yozish faqat o'qituvchiga berilgan.

Shuni ham ta'kidlash joizki, bu yerda hali hayotning past-u balandini ko'rmagan ikki yoshning ham hayotga yengil qarashi va Gulchehraning ham bir daqiqa sukut qilib Abdullaga imkon berishini yoqlab bo'lmaydi. Axir ikkisi ham yosh edi, bir-biriga intilib, munosabatlardagi chegarani unutishgacha borishi ham aslida, bir sinov edi, ammo ikki "oshiq mashuqlar" bu imtihondan o'ta olishmagani ham voqealar keskinlashishiga sabab bo'ladi.

Abdulla ham va'daga vafo qilib, Gulchehrraga uylangan holda qizni qiyin vaziyatdan qutqarish yoki Sayyoraga uylanib porloq kelajakni ta'minlashdan birini tanlash nuqtasi Abdullaning hayotidagi bir imtihon edi.

Afsuski, qanchadan qancha imtihonlarni a'lo baholarga topshirgan, oltin medalli o'quvchi, eng aqlli talaba, olimlikka da'vogar shaxs bo'lgan Abdulla hayotning, odamiylikning shu sinovidan qoqildi. Hayot sinovlarida yaxshi talaba bo'lolmadi. Hamma ham odam bo'lib tug'iladi, lekin shu nomga loyiq bo'lishni har kim ham uddasidan chiqolmaydi. Odamiylik nomli xislat bor-a? Bu so'z odamga, chin insonga xos xislat sanaladi.

## **O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI**

Gulchehra bilan oralarida jiddiyroq bir gap bo'lmagan taqdirda ham insoniylik jihatidan Abdullaning nomardlik qilishga haqqi yo'q edi. Gulchehrani ishontirib, dil rozini olib, boshqaga uylanishga odamiylik huquqi mavjud emas edi.

Shuni ham aytish kerakki, asarda Abdullaning otasi G'ofur aka o'g'liga qarama-qarshi taqqoslangan obraz hisoblanadi. U umri davomida qancha ishda ishlagan bo'lsa-da, amalga intilmadi, amalga tekkanda esa o'zini yo'qotmadi. Hech kimning haqini xurjuniga urmadi. Dang'illama uylar solmadi. Doim qo'lidan kelgancha barchaga yaxshilik qildi. Qo'li ochiq bo'ldi. Uning moddiy tomondan orttirgani bo'lmasa-da, odamiylik jihatdan orttirgan obro'si anchagina edi.

Abdulla o'tkinchi obro'-e'tiborga yetishaman deb vijdonini yutqazib qo'ydi, guldek bir qizning hayotiga zomin bo'ldi. Endi uning olim bo'lishidan biror ma'no bormi?

Inson avvalo olim bo'lishdan-da oldin odam bo'lmas ekan, topgan dunyoviy obro'-e'tibori, unvon-u amali bir pul emasmi? Bejizga: "Olim bo'lguncha, odam bo'l", - deyishmagan.

Xulosa

Olingan ilmdan xulosa chiqarish, undan bahramand bo'lish, uni hayotga tatbiq eta olish insondan juda katta farosat talab qiladi. O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" asarining bosh qahramoni Abdulla esa aynan shu o'qiganlarini tatbiq qilishga kelganda biroz adashdi va odamiylikni bosh berib qo'yadi. O'lmas Umarbekov ushbu asarda odamiylik har qanday mansabdan ustun ekanligini, hayotda olim bo'lishdan ko'ra chin inson bo'lish muhimligini g'oyat va chuqur va haqqoniy tasvirlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'lmas Umarbekov. Tanlangan asarlar. 1-jild. Toshkent: Sharq, 2002
2. O'lmas Umarbekov. Odam bo'lish qiyin. Yangi asr avlodi Toshkent-2019
3. [www.ziyo.com](http://www.ziyo.com)